

O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Bayzakova Dilbar Fayziyevna

Jizzax politexnika instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o‘shishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda u bilan bog‘liq barcha zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarishning tashkiliy tuzilmasi hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni va davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi bayon etilgan

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy islohotlar, oilaviy tadbirkorlik, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, bandlik, aholi daromadlari.

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОЙ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Байзакова Дильбар Файзиевна

Джизакский политехнический институт

Аннотация: В этой статье рассматривается стабильный рост экономики, экономические реформы, роль и место малого бизнеса и частного предпринимательства, организационная структура производства, поддержка малого бизнеса и частного предпринимательства государством

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес и частное предпринимательство, экономические реформы, семейное предпринимательство, макроэкономические показатели, валовой внутренний продукт, занятость, доходы населения.

PROBLEMS OF THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

Bayzakova Dilbar Fayziyevna

Jizzakh Polytechnical Institute

Abstract: In this article, the sustainable growth of the economy through the economic reforms carried out in Uzbekistan, small business and private entrepreneurship and the organizational structure of all modern social production related to it, as well as the role of small business and private entrepreneurship in the development of the economy of our country and the support of the state It is stated that it will be powered.

Key words: Entrepreneurship, small business and private entrepreneurship, economic reforms, family business, macroeconomic indicators, gross domestic product, employment, income of the population.

"Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir" Shavkat Mirziyoyev

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi ko‘proq jamiyatdagi tadbirkorlik faoliyatiga bog‘liq. Chunki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar bozor talablariga moslashuvchan bo‘lib, u xalqlarning turli iste‘mol tovarlari va aholini ish bilan bandligini ta‘minlaydi hamda davlat eksport salohiyatini oshirib, valyuta zaxiralarimizni ko‘paytiradi. Shu sababdan bugungi kunda dunyodagi davlatlar xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilishmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022 yil 22-avgust kuni tadbirkorlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqotda” Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida g‘oyat muhim va hal qiluvchi bosqichga qadam qo‘ymoqdamiz. Sizlarning fidokorona mehnatingiz, innovatsion fikr va yondashuvingiz bugun har qachongidan ham muhim va bu o‘rinda siz barcha soha vakillariga o‘rnak bo‘lishingizga ishonaman, – deb ta‘kidladi.[1]

O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o‘tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me‘yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko‘maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalarini majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

Kichik korxonalar yirik kompaniyalarga nisbatan ular bozor sharoitiga tez moslashadi hamda ishlab chiqargan mahsulotlarini bozorda muvaffaqiyatli o‘tishini ta‘minlashda bir qancha ustunliklarga ega.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida faoliyat yuritmoqda. Kichik korxonalar ishlab

chiqargan mahsulot davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan sifati jihatidan qolishmasligi, hatto, ayrim hollarda ulardan yuqori turishi bilan ajralib turadi.

Respublikamizda kichik biznes korxonalari sonining izchillik bilan ortishi, iqtisodiyotning barcha sektorlarida, jumladan, transport, aloqa, sog'liqni saqlash va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida ham kuzatilmoqda.

Prezident beshta asosiy yo'nalishni ko'rsatib o'tib, ularning har biri bo'yicha ko'plab tashabbuslarni ilgari surdi.

Birinchi yo'nalishda korxonalarni toifalarga ajratib, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida yondashuvlar belgilandi.

Xususan, yillik aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lgan korxonalar – mikro biznes, 10 milliard so'mgacha bo'lgani – kichik biznes va 100 milliard so'mgacha bo'lgani o'rta biznes toifasiga kiradi.

O'tgan yilgi ochiq muloqotda davlatimiz rahbari biznes uchun soliq yukini kamaytirish siyosatini davom ettirishga va'da bergan edi. Pandemiya keltirgan iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, 2023-yil 1-yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foizga tushirilishi ma'lum qilindi.

Ikkinchi yo'nalish qulay moliyalashtirish tizimiga oid bo'ldi. Shu maqsadda kichik biznes loyihalariga 20 trillion so'm yo'naltirilishi belgilandi. Bundan tashqari, tijorat banklari xalqaro moliya institutlaridan ham mablag'lar jalb etadi. Tadbirkorlik jamg'armasi tomonidan kafillik berish imkoniyatlari qo'shimcha 2 barobarga oshiriladi. Natijada kamida 15 ming nafar tadbirkorning kredit olishdagi garov masalasi hal bo'ladi.

Shu bois uchinchi yo'nalishda tuman va shaharlarning sharoitidan kelib chiqib, biznes uchun alohida yondashuvlar joriy etish masalasi ko'rildi. Kelgusi yildan shart-sharoiti bo'yicha barcha tuman va shaharlar 5 ta toifaga ajratiladi. Ularda soliq, subsidiya, kredit foizlari uchun kompensatsiya va kafillik berish, infratuzilmaga ulash bo'yicha alohida tartiblar belgilanadi.

To'rtinchi yo'nalish tadbirkorlarning mulk huquqi himoyasi haqida bo'ldi. Yer va mulk ajratish haqidagi qarorlarni bekor qilish, tergov jarayonida mol-mulkni xatlab qo'yishni faqat sud hal qilishi ta'kidlab o'tildi.

Beshinchi yo'nalishda tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortish masalalariga to'xtalib o'tildi. Xususiylar tadbirkorlik va kichik biznesning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- xususiylar tadbirkorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur tezkorlikni ta'minlab, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperatsiyani yaratadi, bularsiz yuksak samaradorlikni ta'minlab bo'lmaydi;

- bozor uchun zarur raqobatchilik muhitini yaratadi hamda o'zgarib turadigan bozor talabiga moslab tezda ishlab chiqarish turini o'zgartirib olish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi;

- iste'molchilik sohasida yuzaga keladigan bo'shliqni tezda to'ldirishga qodir bo'lib, eng zamonaviy mashina uskunalari va texnologiyadan foydalanib sarflangan sarmoyaning o'rnini juda tez qoplay oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xususiyatlari uning bir qancha afzalliklarga ega bo'lishi imkoniyatlarini yaratadi:

- izlanish, yangi maqsulotlarni maromiga etkazish va o'zlashtirish, ularni talabning tez o'zgarib turishi xatarini qisobga olgan qolda kichik uyushmalarda ishlab chiqarish;

- tezkor texnik servisning ishonchliligi va iste'molchilar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish;

- ishlab chiqarishni moslashuvchan tarzda tashkil etish va mahsulot sotishni bozor talablari qamda bozor vaziyatlari o'zgarishlariga muvofiq olib borish;

- ortiqcha ish kuchini o'ziga singdirish va qk.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarish tashkiliy tuzilmasini muhim va tarkibiy qismini tashkil etadi. Shuning uchun ham davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka muhim o'rin ajratilib, ularga davlat tomonidan madad berilmoqda.

Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega. Yangi texnologik g'oyalarni yirik korxonalarga nisbatan tezroq qabul qiladigan kichik biznesda xatar kamroq va katta turkumdagi ishlab chiqarishga nisbatan ishni tezroq yo'lga qo'yish mumkin. Bu esa bizning sharoitda fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Iqtisodiyotning umumiy taraqqiyotini ta'minlash, tovar va xizmatlar yetishmovchiligini bartaraf etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik katta o'rin tutadi. Mehnat resurslari tez o'sayotgan va ishlab chiqarish joylashuvidagi o'ziga xoslik sharoitlarida O'zbekistonda kichik korxonalar tizimini vujudga keltirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- erkin mehnat resurslari, yangi xo'jalik munosabatlarining joriy etilishi, yangi mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi natijasida ishlab chiqarishda bo'shatiladigan shaxslarning ijtimoiy ishlab chiqarishga ko'proq jalb etish, mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'lishi;

- aholining, birinchi navbatda, yoshlarning moddiy, ma'naviy va kasb darajasini ko'tarish;

- aholining sust harakatchanligini hisobga olgan holda sanoat ishlab chiqarishini aholi yashaydigan joylarga yaqinlashtirish hamda aholining xalq iste'moli mollariga ehtiyojlarini to'laroq qondirish;

- milliy va badiiy hunarmandchilikni tiklash, shuningdek kichik va o'rta shaqarlar, qishloq aqoli punktlarini rivojlantirishga yordam ko'rsatish, umuman, har bir mintaqa uchun g'oyat muhim iqtisodiyot samaradorligini oshirish.

O'zbekistonda kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining takomillashtirilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xizmat ko'rsatadigan banklar, fondlar, investsiyalar va sug'urta tashkilotlari faoliyatlarini rag'batlantirish yo'nalishida olib borilishi lozim. Xorijiy mamlakatlardagi kabi O'zbekiston Respublikasida ham agar korxonalar ustuvor davlat dasturida (yangi texnikani yaratish, uzoq hududlarni rivojlantirish va boshqalar) qatnashayotgan bo'lsa, imtiyozli qarzlarni olishi mumkin. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish respublikamizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri qisoblanadi. Bu esa iqtisodiy raqobatning rivojlanishi, iste'mol bozorini tovar va xizmat turlari bilan to'ldirish, shuningdek xususiy tadbirkorlarning keng qatlamini yaratishni taqozo etadi.

Mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish muammolarini aniqlamay va ularning yechimlarini topmay turib, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy muammolarni, ayniqsa ishsizlikning oldini olish, aqoli daromadlarini oshirish, iste'mol bozorini maqsulotlar bilan to'ldirish va eksportni oshirish kabi muqim vazifalarni amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Yuqoridagi muammolarni ijobiy hal etgan jahondagi rivojlangan davlatlarda ishlab chiqariladigan yalpi ichki mahsulotning 70-80% dan ko'proqi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog'ining ulushiga to'g'ri keladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 22-avgust kuni tadbirkorlar bilan o'tkazgan ochiq muloqotda so'zlagan nutqi. Xalq so'zi" gazetasi.2022 yil 23 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021 yil 20-avgust kuni tadbirkorlar bilan o'tkazgan ochiq muloqotda so'zlagan nutqi. Xalq so'zi" gazetasi.2021 yil 21 avgust.
3. Xodiev B.Yu.,Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2011.
4. Bayzakova, D. (2021). Supply chain business processes in the example of business incubators. Экономика и социум, (5-1 (84)), 80-83.